Vazirlik markaziy apparatiga 2025-yilning 5 oyi davomda jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning o‘rganib chiqilishi haqida MA’LUMOT

Vazirlikda, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ijro monitoringini edo.uz elektron dasturidan foydalangan holda yuritish va nazorat qilish hamda ijro intizomiga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha hisobot davrida olib borilgan ishlar yuzasidan vazirlikning har chorakda o‘tkaziladigan hay’at yig‘ilishlarida, doimiy o‘tkaziladigan vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlarida, shuningdek, har hafta yakuni bilan vazir, vazir o‘rinbosari (ijro intizomi masalalari bo‘yicha mas’ul) huzurida muntazam ravishda muhokama qilib borildi.

Vazirlik markaziy apparati va tizim tashkilotlarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlaydigan jami 15 nafar mutaxassis-xodim Vazirlar Mahkamasi tomonidan tashkil etilgan malaka oshirish tadbirlarida, shu bilan birgalikda Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlarni malakasini oshirish markazida va mart oyida Respublika kasbiy ko‘nikmalar markazi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirlarda ishtirok etib, surdo tarjimonlik kurslarida shartnoma asosida o‘qitilib, sertifikatlar oldi.

Vazirlik tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash mavzusida prezentatsiya shaklida seminar-trening o‘tkazilib, unda rahbar-ishtirokchilar bilan mavzuga aloqador savol-javoblar o‘tkazilib, ishtirokchilar tomonidan berilgan savol va ma’lumotlarga vazirlikning murojaatlar bilan ishlash bo‘limi mas’ullari va yurist-konsultlar tomonidan murojaatlar bilan ishlashni tashkil etishda qonun va boshqa normativ hujjatlar bo‘yicha tushuntirishlar berildi.

Ayni paytda vazirlikning 71 202-47-00 raqamli ishonch telefoni 24/7 rejimida ishlab turibdi. Shuningdek, Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi, Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi hamda “Suv xo‘jaligida bozor mexanizmlarini joriy qilish” davlat muassasasida ham ishonch telefonlari yo‘lga qo‘yilgan.

Hisobot davrida vazirlikka Prezident virtual qabulxonasi, PM.GOV.UZ sayti, Vazirlar Mahkamasi, Tadbirkorlar virtual ofisi, Bosh prokuratura virtual qabulxonasi, e-xat, vazirlik ishonch telefoni, pochta xizmatlari, veb-sayt orqali jami 1562 ta jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati kelib tushdi.

Ushbu murojaatlardan 147 tasi (11,1%) vazirlik vakolatiga taalluqli bo‘lmaganligi sababli tegishliligi bo‘yicha boshqa vazirlik va idoralarga yo‘naltirilgan, 3 tasi (0,2%) yuzasidan anonim hamda 19 tasi (1,2%) yuzasidan ko‘rmasdan qoldirish xulosalari qabul qilingan.

Vazirlik vakolati doirasida o‘rganilib, hal etilgan 1353 ta (86,6%) murojaatdan 392 tasi (29%) yuzasidan huquqiy tushuntirishlar berilgan bo‘lib, 961

tasi (71%) ijobiy hal etilgan. 40 ta murojaat o‘rganish jarayonida bo‘lib, nazoratga olingan.

O‘rganishlar jarayonida qonun osti hujjatlarda belgilangan muddatlar buzilishiga 2 ta (0,01%) holatda yo‘l qo‘yilgani aniqlanib, bu haqda rahbariyatga bildirishnoma kiritilgan va markaziy apparat yig‘ilishlarida qattiq muhokama etilib, xatoga yo‘l qo‘ygan 3 nafar vazirlik va tizim tashkilotining mas’ul xodimlariga nisbatan normativ-huquqiy hujjatlarga asosan intizomiy choralar qo‘lanilgan.

Murojaatlarning 1353 tasi (86,6%) jismoniy shaxslardan, 209 tasi (13,3%) yuridik shaxslardan kelib tushgan bo‘lib, ulardan 1191 tasi (76,2%) elektron, 68 tasi (4,3%) yozma hamda 33 tasi (2,1%) shaxsiy qabullarda va 382 tasi (19,6%) og‘zaki tartibda qabul qilingan.

Monitoring natijalariga ko‘ra, vazirlikka bevosita kelib tushgan 1562 ta murojaatdan 25 tasi (1,6%) turli idoralardan bitta shaxs va bir xil masalada yuborilgan dublikat murojaat ekanligi hamda fuqarolar tomonidan o‘rganish natijalaridan qoniqish hosil qilmaganligi sababli 12 tasi (0,7%) takroriy kelib tushganligi aniqlandi.

Murojaatlarning 18 tasi (1,1%) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Senati, deputatlar, Ombudsman, 1009 tasi (64,6%) Prezident virtual qabulxonasi va pm.gov.uz, 44 tasi (2,8%) Tadbirkorlar virtual ofisi, 53 tasi (3,4%) Bosh prokuraturaga murojaat portali, 21 tasi (1,3%) Vazirlar Mahkamasi, 33 tasi (2,1%) e-xat elektron tizimi orqali boshqa vazirlik va idoralar, 270 tasi (17,2%) vazirlik ishonch telefoni, 33 tasi (2,1%) shaxsiy tashriflar, 81 tasi (5,1%) pochta xizmati, e-mail, veb-sayt orqali kelib tushgan.

Murojaatlarning 615 tasi (39,3%) sug‘orish suvi, 294 tasi (18,8%) irrigatsiya, 121 tasi (7,7%) muhofaza yerlardan foydalanish, 84 tasi (5,3%) ijtimoiy, 60 tasi (3,8%) qurilish, 165 tasi (10,5%) nasos stansiyalar, 65 tasi (4,1%) melioratsiya, 37 tasi (2,3%) ichimlik suvi, 23 tasi (1,4%) rahbar xodimlar xati-harakati (harakatsizligi), 8 tasi (0,5%) korrupsiya holatlari, 33 tasi (2,1%) suv tejovchi texnologiyalar, 3 tasi (0,2%) investitsiya, 7 tasi (0,4%) innovatsiya, 43 tasi (3,9%) davlat-xususiy sheriklik, 2 tasi (0,5%) baliqchilik xo‘jaligi tashkil etish va boshqa masalalarga taalluqlidir.

Murojaatlarning 59 tasi (3,7%) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 50 tasi (3,2%) Andijon viloyati, 163 tasi (10,4%) Buxoro viloyati, 119 tasi (7,6%) Jizzax viloyati, 169 tasi (10,8%) Qashqadaryo viloyati, 40 tasi (2,5%) Navoiy viloyati, 90 tasi (5,2%) Namangan viloyati, 161 tasi (10,3%) Samarqand viloyati, 83 tasi (5,3%) Sirdaryo viloyati, 167 tasi (10,6%) Surxondaryo viloyati, 212 tasi (13,5%) Farg‘ona viloyati, 67 tasi (4,2%) Xorazm viloyati, 110 tasi (7,0%) Toshkent viloyati, 68 tasi (4,3%) Toshkent shahri hamda 4 tasi (0,2%) xorijiy davlatlardan kelib tushgan.

Vazirlik rahbariyati tomonidan hududlarda 38 marotaba sayyor qabullar o‘tkazilgan bo‘lib, jismoniy va yuridik shaxslar va ularning vakillari qabul qilingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli farmonining 4-ilovasi, 82-maqsadi ijrosi yuzasidan uzoq hududlarda rahbariyat tomonidan 11 marotaba onlayn muloqot o‘tkazilib, ularning murojaatlari eshitilgan va tezkorlik bilan hal qilish choralari ko‘rilgan.

Vazirlikning murojaatlar bilan ishlash bo‘limining Ish rejasiga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, Norin-Qoradaryo, Norin-Sirdaryo, Sirdaryo-So‘x, Zarafshon, Chapqirg‘oq-Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va uning huzuridagi tizim tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonun va qonunosti xujjatlarga muvofiq o‘rganilayotganini tahlil qilish va maqsadli o‘rganishlar o‘tkazildi.

O‘rganish natijasiga ko‘ra, ushbu tizimlarda hujjatlar bilan ishlashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aniqlanib, joyida bartaraf etish choralari ko‘rildi. Vazirlik mas’ul xodimlari va ITHB rahbarlari ishtirokida muhokama o‘tkazilib, yig‘ilish bayoni va chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rildi va tashkilot rahbari zimmasiga nazorat qilish yuklatildi.

Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi